

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA AGRESSIVLIKNI ANIQLASH VA OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

*Sharopova Lolaxon Erkinjonovna*

*Namangan viloyati Chust tumani MMTBga qarashli*

*23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan agressiv xulq-atvorning psixologik sabablari, uni aniqlash usullari hamda agressivlikning oldini olish bo‘yicha samarali psixologik yondashuvlar yoritilgan. Bolalar shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi, tengdoshlar bilan munosabat va emotsional holat muhim ahamiyatga ega. Agressiv xatti-harakatlar ko‘pincha bolaning ichki ruhiy zo‘riqishi, e‘tibor yetishmasligi, noto‘g‘ri tarbiya usullari yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar natijasida yuzaga keladi. Mazkur maqolada agressivlikni erta aniqlash, diagnostika qilish hamda maktab psixologi, o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligida profilaktik ishlarni tashkil etish masalalari keng tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** agressiya, agressiv xulq, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, psixologik diagnostika, profilaktika, emotsional rivojlanish, tarbiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam, maktab psixologi.

### **KIRISH**

Boshlang‘ich maktab yoshi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar, axloqiy me‘yorlar, xulq-atvor qoidalari va emotsional barqarorlik shakllana boshlaydi. Shu bilan birga ayrim bolalarda agressiv xatti-harakatlar ham namoyon bo‘lishi mumkin. Agressivlik – bu boshqalarga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakat yoki salbiy emotsional reaksiyalar yig‘indisidir. U jismoniy, og‘zaki yoki yashirin ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida agressivlik ko‘pincha urishish, haqorat qilish, buyumlarga zarar

yetkazish, do‘stlarini kamsitish yoki o‘qituvchiga qarshilik ko‘rsatish kabi holatlar orqali ko‘rinadi.

Bolalarda agressivlikning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Avvalo, oila muhitining ta‘siri katta ahamiyatga ega. Oilada tez-tez janjal bo‘lishi, ota-onaning qo‘pol muomalasi, bolaning fikriga e‘tibor berilmasligi yoki haddan tashqari qattiq nazorat agressiv xulqning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ba‘zi hollarda aksincha, bolaning barcha istaklari bajarilishi ham uning xulqida tajovuzkorlikni kuchaytiradi. Chunki bola o‘z xohishlari bajarilmagan vaziyatlarda salbiy reaksiya ko‘rsatishni boshlaydi.

Bolaning agressiv xatti-harakatlariga maktab muhiti ham ta‘sir ko‘rsatadi. Sinf jamoasida o‘z o‘rnini topa olmaslik, tengdoshlari tomonidan rad etilish, o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelish yoki o‘qituvchi bilan munosabatdagi muammolar ham agressivlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim bolalar o‘zlarini himoya qilish yoki e‘tibor qozonish uchun agressiv xatti-harakatlarga murojaat qiladilar.

Psixologik nuqtai nazardan agressivlik ko‘pincha bolaning ichki emotsional muammolarining tashqi ifodasi hisoblanadi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda eta olmaganda, ularni agressiya orqali namoyon qiladi. Masalan, qo‘rquv, ranjish, yolg‘izlik yoki tushunilmaslik hissi agressiv xulqga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun agressivlikni faqat intizom muammosi sifatida emas, balki psixologik muammo sifatida ko‘rib chiqish muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida agressivlikni aniqlash uchun turli psixologik diagnostika usullaridan foydalaniladi. Bular kuzatish, suhbat, so‘rovnomalar, proyektiv testlar va psixologik metodikalardan iborat. Masalan, “Mavjud bo‘lmagan hayvon” testi, “Oila rasmi” testi yoki turli emotsional holatni aniqlovchi metodikalar boladagi yashirin agressiv tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Psixolog o‘quvchining xulqini dars jarayonida, tanaffuslarda va sinfdan tashqari faoliyatda kuzatib, uning ijtimoiy moslashuvi haqida xulosa chiqaradi.

Agressiv xatti-harakatlarni oldini olishda profilaktik ishlar muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo bolada ijobiy emotsional muhit yaratish zarur. Maktabda o‘quvchilar o‘zlarini

xavfsiz va qadrlangan his qiladigan muhit shakllantirilishi kerak. O‘qituvchi va psixolog o‘quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlashi lozim.

Psixologik treninglar va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar agressivlikni kamaytirishda samarali hisoblanadi. Masalan, emotsiyalarni boshqarish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Shuningdek, rolli o‘yinlar, psixogimnastika mashqlari, guruhviy muhokamalar bolalarda empatiya va hamdardlik tuyg‘usini rivojlantiradi.

Agressiv bolalar bilan ishlashda psixolog individual maslahatlar ham olib borishi zarur. Bunday suhbatlar jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishi, muammolarini aytib berishi mumkin. Psixolog bolaning ichki kechinmalarini tushunib, unga konstruktiv xulq-atvor usullarini o‘rgatadi.

Ota-onalar bilan ishlash ham agressivlikning oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Ko‘pincha ota-onalar boladagi agressiv xulqning sabablarini tushunmaydilar va unga nisbatan jazolash usullarini qo‘llaydilar. Bu esa muammoni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu sababli psixolog ota-onalarga pedagogik va psixologik maslahatlar berib borishi kerak. Ota-onalarga bola bilan to‘g‘ri muloqot qilish, uning his-tuyg‘ularini tushunish va qo‘llab-quvvatlash muhimligi tushuntiriladi.

Shuningdek, bolalarda agressivlikni kamaytirishda sport, ijodiy faoliyat va turli to‘garaklarning ahamiyati katta. Bunday faoliyatlar boladagi ortiqcha energiyani ijobiy yo‘nalishga yo‘naltiradi va uning o‘zini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Musiqa, rasm chizish, sport o‘yinlari va teatr mashg‘ulotlari bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Maktab psixologi agressiv o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida tizimli yondashuvni qo‘llashi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchilar, sinf rahbarlari va ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Agar barcha tomonlar birgalikda harakat qilsa, bolaning xulqidagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf etish osonlashadi.

Hozirgi paytda agressivlik muommosi psixologiyadagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bog‘liq bo‘lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprofilaktikasi bo‘yicha xorijda bir qancha tadqiqot

ishlari olib borilgan va ulardan amaliyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlik juda ko'payib ketganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Ya'ni har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommolarga to'la bo'ladi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida kichik maktab yoshi o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Agar biz g'arb kontseptsiyalarining xilma-xilligini tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan eng muhimlaridan uchtasini ajratishimiz mumkin. Birinchisiga, agressivlik shaxsning tug'ma, instinktiv mulki sifatida qaraladigan nazariyalar kiradi (bunga psixoanalitik nazariyalar kiradi). Ikkinchisi, agressiyani frustratsiyaga bo'lgan xatti-harakat sifatida tasvirlaydi. Uchinchisi, agressivlikni o'rganish natijasida shakllanadigan xulq-atvorning xususiyati deb hisoblaydigan tushunchalardan iborat (xulq -atvor nazariyalari). L.Berkovitz "frustratsiya-agressiya" kontseptual sxemasiga uchta muhim o'zgartirish kiritadi: a) frustratsiya agressiv harakatlarda amalga oshmaydi, lekin unga tayyorgarlikni rag'batlantiradi; b) hattoki tayyor holda bo'lsa ham, agressiya tegishli shartlarsiz sodir bo'lmaydi; v) frustratsion vaziyatlardan agressiv harakatlar yordamida chiqib ketish individda bunday harakatlarning odatlanishiga tarbiyalaydi.

Agressiv reaksiyalarning namoyon bo'lish kuchida ham gender farqlari mavjud. O'g'il bolalar jismoniy tajovuz reaksiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, yoshi kattaroq qizlar esa tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi: og'zaki, bilvosita va negativizm. Ehtimol, bu o'g'il bolalarning tajovuzkorligi "tashqi tomonga", qizlar esa "ichkariga" qaratilganligi bilan bog'liqdir.

I.A.Furmanov bolalar agressivligini tushuntirishning turli uslubiy va kontseptual yondashuvlari, bolaning xatti-harakatlarida tajovuzning paydo bo'lishini rag'batlantiruvchi yoki qo'zg'atuvchi psixologik va ijtimoiy omillar, uni

psixodiagnostikalashning bevosita va yordamchi usullari, shuningdek, psixo-ijtimoiy korrektsiya yo'nalishlarini aniq ochib bergan. Uning ta'kidlashicha, bolalar o'rtasidagi konfliktlar narsalar va o'yinchoqlarni egallash bilan bog'liq bu chegaralar kesishganda paydo bo'ladi, ya'ni bir nechta bolalar boshqa bolalarning o'yinchoqlarini olish orqali o'z chegaralarini kengaytirishga harakat qiladi. Buni 2, 4 va 7 yoshli uchta o'g'il bolani uzoq muddatli kuzatish natijalari tasdiqlaydi.

Agressiv xulq-atvor bilan bog'liq eng ko'p nizolar kichik, katta va o'rta bola o'rtasida, kichiklar va katta yoshlilar o'rtasida esa qarama -qarshilik minimal bo'lganligi kuzatildi. Nizolar faqat ba'zi o'yinchoqlarga egalik qilish uchun paydo bo'lganiga e'tibor qaratildi. Ajablanarlisi shundaki, o'yinchoqlar borligida ular o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q edi. E. Fromm agressiyani keng ma'noda ta'kidlab o'tadi – bunda faqatgina odam va hayvonatlarga emas, balki jonsiz predmetlarga ham ziyon keltirishni agressiya dep hisoblagan.

K.S. Shalaginova tadqiqot ishida "Agressivlik" tushunchasini ilimiy asoslab beradi va u boshlang'ich maktab yoshidagi agressivlik namoyon bo'lishining to'rt darajasiga xos xususiyatni keltiradi: nol darajada - g'ayritabiiy agressivlik yo'qolgan, birinchi darajada – agressivlik asosan hissiyirodaviy sohada, ikkinchi darajada – intellektual soha hukmronlik qiladigan hissiyirodaviy sohada, uchinchi daraja – hissiy-irodaviy, intellektual, faoliyat soha hukmronlik qiladigan darajalarga ajratgan. Tadqiqot natijasida agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilarini tizimli psixologik qo'llab -quvvatlash modelini ishlab chiqqan, bu o'zaro bog'liq uchta komponent mavjudligini nazarda tutadi:

- 1) nazariy, shu jumladan tadqiqot ishiga tegishli kategoriya apparati ta'rifi;
- 2) amalga oshirishni o'z ichiga olgan empirik 1 (maktab) toifali apparatni aniqlash, diagnostika va tuzatishni amalga oshirishda tizimli yondashuv sharoitida ishlab chiqilgan agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilariga tizimli psixologik yordam;
- 3) empirik 2 komponentida agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilariga tizimli psixologik yordam ko'rsatishni amalga oshirishda bo'lajak ta'lim psixologlarini kasbiy tayyorlash uchun o'quv-uslubiy asosni (ixtiyoriy kurs misolida) ishlab chiqish vazifasini

qo'yadi.F.F.Rasulova o'z tadqiqotida kichik, o'rta, katta o'smirlarga xos agressiv mayllarning tabaqalashtirilgan ichki evolyutsiyasi hamda agressiya shakllari o'rtasidagi bog'liqni jinsga ko'ra tafovutlanishining xulq-atvor va ishtimoiy munosabatlarini shartlovchi psixologik omillarini, ota-ona bilan bola munosabatlarida qabul qilish va kooperatsiya tarbiya usubi agressiyaning pasayishini ta'minlovchi psixologik omillar ekanligini, agressiv o'smirlar xulqatvorini psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida "Xulq-atvorni modifikatsiyalash treningi" psixologik trening dasturini, agressiyaga moyil o'smirlar xulq-atvorini psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorlikda samarali ish olib borishining algoritmini ishlab chiqqan. Uning tadqiqoti natijasida mahalliy sharoitda o'smirlar agressiv xulq-atvorining yosh, jins va individual psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir psixodiagnostik metodikalarni tizimlashtirishga va o'smirlardagi agressiv xulqatvorni korrektsiya qilish imlonini beruvchi ijtimoiy trening dasturi ilmiy asoslangan, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan hamda xalq ta'limi muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi tavsiya etilgan.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida agressivlik muammosi dolzarb psixologik masalalardan biri hisoblanadi. Uni erta aniqlash va to'g'ri yondashuv orqali oldini olish mumkin. Buning uchun maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish, bolalarning emotsional ehtiyojlarini qondirish, ijobiy muloqotni rivojlantirish va psixologik yordam ko'rsatish zarur. Maktab psixologi, o'qituvchi va ota-onalar o'zaro hamkorlikda ishlagan taqdirdagina bolalarda agressiv xatti-harakatlarning oldini olish va ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бютнер К. Жить с агрессивными детьми.– М., 1991.– С. 56
2. Фурманов.И.А. “Детская агрессивность: Психодиагностика и коррекция”- Минск: Ильин В.П., 1996. –С.12

3. Голенищева Е.Л. Социально - психологические факторы агрессивности младших школьников. Автореф. дисс.. кандидата психологических наук:  
19.00.13/ Санкт- Петербург-2005. С-5
5. Крейхи Б. Социальная психология агрессии. – М.: Питер, 2003. – С.56.
6. Ziyo.net